Abstract. Using the textile industry as an empirical context, the study examines the problem of measuring the processing depth of an industrial chain comprising sequential technological stages from the perspective of value chain economics. The research aims to substantiate the limitations of existing composite index aggregation methods in reflecting the structure of a value chain and to develop a new aggregation rule in which the sensitivity parameter to the limiting factor is analytically derived from the number of links in the chain. The methodology combines the fiber-equivalent concept, CRITIC and entropy-based weighting methods, and geometric aggregation based on the limiting-factor principle. The results demonstrate that the chain depth index calculated relative to the initial raw material is 0.105 points higher than the actual share of finished products. This discrepancy is attributed to the incorrect equivalence established between intermediate links and the lower link of the chain. The sensitivity parameter to the limiting factor is derived from the chain length as $\lambda = 1/(L - 1)$, demonstrating that it is not an arbitrarily selected parameter but an economic quantity determined by the structure of the value chain. The findings provide a scientific basis for distinguishing between the actual state of the industry and the quality of the management mechanism when evaluating industrial policy.

Keywords: value chain economics, composite index, limiting factor, fiber equivalent, chain depth, objective weighting.



KIRISH

Sanoat tarmog'ining rivojlanish mexanizmini baholash uchun mavjud vositalarning aksariyati tarmoq holatini, ya'ni muayyan vaqt kesimidagi natijani o'lchaydi, mexanizmning o'zini, ya'ni natijani shakllantiruvchi boshqaruv jarayonini emas. Bu farq nazariy jihatdan muhim ahamiyatga ega: tarmoq holati yaxshi bo'lgan sharoitda ham mexanizm yetarli darajada samarali ishlamasligi mumkin, chunki natija tashqi konyunktura hisobiga shakllangan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. Aksincha, mexanizm to'g'ri ishlagan holda ham qisqa muddatda natija pasayishi mumkin. Shu sababli baholash mezonlari tarmoq holatidan emas, balki mexanizmning o'ziga qo'yiladigan tizimli shartlardan keltirib chiqarilishi lozim.

Mezonlar aniqlangach, ularni miqdoriy o'lchash uchun matematik apparat zarur bo'ladi, biroq bu bosqichda ikkinchi, ilk qarashda ko'zga tashlanmaydigan muammo yuzaga chiqadi. Kompozit indekslar nazariyasida qo'llaniladigan umumiy agregatlash vositalari — arifmetik o'rtacha va geometrik o'rtacha — ketma-ket bog'langan texnologik zanjir uchun mo'ljallanmagan. To'qimachilik sanoatida bir tonna ip-kalava bilan bir tonna tayyor kiyim tarkibida turli miqdordagi tola mujassam bo'ladi, chunki har bir bosqichda xomashyoning bir qismi chiqindiga aylanadi. Bu holat oraliq mahsulotlarni bevosita taqqoslash imkoniyatini cheklaydi va standart agregatlash usullarini qo'llashda natijani mazmunan to'g'ri talqin qilishni murakkablashtiradi.

Mazkur maqolaning maqsadi — ketma-ket texnologik zanjirga xos o'lchov muammosini nazariy jihatdan hal etish, buning uchun boshlang'ich xomashyo birligiga keltirilgan tola ekvivalenti konsepsiyasini asoslash hamda kompozit indeksni agregatlashda qo'llaniladigan cheklovchi omilga sezgirlik parametrini ixtiyoriy tanlovdan zanjir tuzilmasidan analitik keltirib chiqarish darajasiga ko'tarishdan iborat. Vazifa uch qismga bo'linadi: birinchi navbatda, mavjud baholash vositalarining metodologik cheklovlari ko'rsatiladi, so'ngra tola ekvivalenti asosidagi o'lchov apparati quriladi, nihoyat, ketma-ket zanjir uchun eng kam qonuniga asoslangan agregatlash qoidasi ishlab chiqiladi.

Muammoning amaliy dolzarbligi shundaki, sanoat siyosati doirasida qabul qilinadigan qo'llab-quvvatlash choralarini baholashda mazkur o'lchov yondashuvini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar rag'batlantirish natijasi tayyor mahsulot ulushi kabi oddiy ko'rsatkich bilan qayd etilsa, oraliq bo'g'inga (masalan, mato ishlab chiqarishga) yo'naltirilgan investitsiyaning haqiqiy hissasi to'liq aks etmasligi mumkin, chunki bu ko'rsatkich mato va ip-kalavani bir xil — «tayyor bo'lmagan mahsulot» — toifasida ko'radi. Natijada to'g'ri yo'naltirilgan sarmoyaning statistik samaradorligini to'liq baholash imkoniyati cheklanishi va uni qayta ko'rib chiqish zarurati yuzaga kelishi mumkin. Bu holat o'lchov muammosini sof nazariy masaladan amaliy siyosat qarorlariga bevosita ta'sir etuvchi masalaga aylantiradi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xalqaro amaliyotda sanoat tarmoqlarini baholashning bir qator vositalari qo'llanadi, ammo ularning aksariyati bevosita mexanizm sifatini o'lchashga emas, balki tarmoq faoliyatining muayyan jihatlarini baholashga yo'naltirilgan. UNIDO tomonidan hisoblanadigan sanoat raqobatbardoshligi indeksi mamlakatning qayta ishlash sanoatidagi umumiy salohiyatini baholaydi va milliy darajada qo'llanadi [1]. B. Balassa taklif etgan aniqlangan qiyosiy ustunlik indeksi tarmoqning tashqi savdodagi mavqeyini ko'rsatadi, ammo ushbu mavqening qanday mexanizm orqali shakllanganini bevosita aks ettirmaydi [2]. A. Xirshman tomonidan asoslangan konsentratsiya indeksi esa bozor yoki tarmoq ichidagi konsentratsiya darajasini o'lchashga xizmat qiladi [3].

R. Koopman va uning hammualliflari ishlab chiqqan qiymat zanjiridagi mavqe indeksi mazkur tadqiqot yo'nalishiga yaqin vositalardan biri hisoblanadi, biroq uni qo'llash tarmoqlararo balans jadvallarini talab qiladi va O'zbekiston mazkur bazalarda yetarli darajada to'liq qamrab olinmagan [4]. A. Charnes, U. Kuper va E. Rods taklif etgan ma'lumotlar o'rovi tahlili nisbiy samaradorlikni aniqlash imkonini beradi, ammo mutlaq mezonni belgilashga yo'naltirilmagan [5]. Sanab o'tilgan vositalarning umumiy xususiyati ularning asosan tarmoq holatini o'lchashga yo'naltirilgani, mexanizm sifatini baholash imkoniyatlari esa nisbatan cheklanganida namoyan bo'ladi.

Beshta vositaning to'liq qiyosiy tahlili 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Tarmoqni baholashning mavjud vositalari va ularning mexanizmni o'lchashdagi cheklovlari¹

Vosita	Nimani o'lchaydi	Nimani o'lchamaydi	Tatbiq cheklovi
UNIDO CIP indeksi	Milliy qayta ishlash salohiyati	Alohida tarmoq va boshqaruv ta'sirining natijaga aylanishi	Asosan milliy darajada qo'llanadi
Balassa RCA indeksi	Tashqi savdodagi qiyosiy ustunlik	Ustunlikning qanday mexanizm orqali shakllangani	Statik xususiyatga ega, sababiy bog'liqlikni to'liq ochib bermaydi
Koopman GVC mavqe indeksi	Global zanjirdagi o'rin	Milliy siyosat vositalarining ta'siri	Tarmoqlararo balans jadvalini talab qiladi
DEA (Charnes–Cooper–Rhodes)	Obyektlarning nisbiy texnik samaradorligi	Samaradorlikning mutlaq mezonni va sabablari	Nisbiy natijani ifodalaydi, mutlaq mezonni belgilashga yo'naltirilmagan

Vaznlash masalasida ekspert baholari o'rniga obyektiv usullar qo'llanadi. K. Shennonning axborot nazariyasiga asoslangan entropiya usuli [6] kuzatuvlar bo'yicha ko'proq farqlanadigan indikatorning axborot qiymatini yuqori deb qabul qiladi [7], biroq mazkur usulda indikatorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olish imkoniyati cheklangan. D. Diakulaki va uning hammualliflari ishlab chiqqan CRITIC usuli [8] vaznni ikki komponent — kontrast intensivligi va indikatorlararo konflikt — orqali aniqlaydi va shu orqali takrorlanuvchi indikatorlarning haddan tashqari yuqori baholanishining oldini olish imkonini beradi. Ikki usul natijalarini birlashtirish uslubi C. Xvang va K. Yoon tomonidan asoslangan [9].

Ketma-ket bog'langan tizimlar uchun agregatlash tamoyili Y. Libigning eng kam qonuniga borib taqaladi [10]: tizimning imkoniyati resurslarning o'rtachasi bilan emas, balki eng zaif elementi bilan belgilanadi. Ushbu qonuniyat dastlab agrokimyoda shakllangan bo'lsa-da, keyinchalik ishlab chiqarish iqtisodiyotida cheklovchi omil nazariyasi sifatida keng qo'llanila boshlandi. Shunga qaramay, mavjud adabiyotlarda eng kam qonuni bilan kompozit indeksning geometrik agregatlash apparatini birlashtiruvchi hamda parametrlarni zanjir tuzilmasidan analitik tarzda keltirib chiqarishga yo'naltirilgan tadqiqotlar yetarli darajada yoritilmagan.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar uch qatlamda rivojlangan: birinchisi tarmoq holatini baholash vositalarini taqdim etadi, biroq mexanizm sifatini o'lchash imkoniyatlari nisbatan cheklangan (UNIDO, Balassa, Xirshman, Koopman, DEA); ikkinchisi obyektiv vaznlash usullarini taqdim etadi, biroq ularda zanjir tuzilmasini hisobga olish imkoniyati to'liq aks etmagan (Shennon, Diakulaki, Xvang va Yoon); uchinchi eng kam qonunini nazariy jihatdan asoslaydi, biroq uni kompozit indeks apparatiga formal tarzda kiritish masalasi yetarlicha rivojlantirilmagan (Libig). Mazkur maqola ushbu uch qatlamni birlashtirib, ketma-ket zanjir uchun yagona o'lchov apparatini shakllantirishga qaratilgan.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot to'rt bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda o'lchov apparati zanjirning texnologik tuzilmasidan keltirib chiqarildi. To'qimachilik sanoati uchun zanjir to'rt bo'g'indan — tola, ip-kalava, mato va tayyor kiyimdan — iborat deb qabul qilindi. Har bir bo'g'inda xomashyodan foydalanish chiqim koeffitsienti η_k bilan ifodalanadi, boshlang'ich toladan k-bo'g'in mahsulotini olish uchun zarur bo'lgan tola miqdori esa chiqim koeffitsientlari ko'paytmasiga teskari proporsional bo'ladi:

$$\gamma_k = \frac{1}{\prod_{s=1}^k \eta_s} \quad (1)$$

bunda γ_k — k-bo'g'inning tola ekvivalenti koeffitsienti, η_s — s-bo'g'inning chiqim koeffitsienti, L — zanjir bo'g'inlarining umumiy soni. Yigirish bosqichida o'rtacha chiqim 10 foizni, to'qish bosqichida 4 foizni, bichish-tikish bosqichida 15 foizni tashkil etishi hisobga olinsa, tola ekvivalenti koeffitsientlari mos ravishda 1,000; 1,111; 1,157 va 1,362 ga teng bo'ladi (1-rasm).

1 Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.



Har bir bosqichda chiqim yo'qotilgan tola miqdorini qoplash uchun boshlang'ich tola sarfi γ_k koeffitsienti bo'yicha oshib boradi

$$\gamma_k = 1 / \prod \eta_s \quad (s = 1, \dots, k)$$

1-rasm. To'qimachilik sanoati texnologik zanjirining miqdoriy tavsifi va tola ekvivalenti koeffitsientlari²

Ikkinchi bosqichda zanjir chuqurligi indeksi bo'g'inining zanjirdagi mavqeyi va uning tola sig'imi bo'yicha vaznlangan ko'rsatkich sifatida aniqlandi. Mazkur indeks amaldagi amaliyotda qo'llanadigan tayyor mahsulot ulushidan farq qiladi, chunki u oraliq bo'g'inlarni ham hisobga oladi va ularni quyi bo'g'in bilan tenglashtirmaydi:

$$D = \frac{\sum_{k=1}^L \frac{l_k}{L} \cdot \gamma_k \cdot Q_k}{\sum_{k=1}^L \gamma_k \cdot Q_k} \quad (2)$$

bunda l_k — k-bo'g'inining zanjirdagi tartib raqami, Q_k — k-bo'g'in mahsulotining fizik hajmi. Indeksning quyi chegarasi barcha mahsulot ikkinchi bo'g'inda eksport qilingan holatga, yuqori chegarasi esa barcha mahsulot oxirgi bo'g'inda eksport qilingan holatga to'g'ri keladi. Shkalani nolgacha keltirish uchun normallashtirish qo'llanadi:

$$d = \frac{D - \frac{l_{\min}}{L}}{1 - \frac{l_{\min}}{L}} \quad (3)$$

Uchinchi bosqichda indikatorlarni vaznlash uchun obyektiv usul tanlandi. Entropiya usulining muhim xususiyati shundaki, u har bir indikatorni alohida holda ko'rib chiqadi va indikatorlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni to'liq hisobga olmaydi. Natijada bir-birini takrorlaydigan ikki indikatorning har ikkalasi ham yuqori vazn olishi mumkin. Shu sababli asosiy usul sifatida CRITIC usuli tanlandi. Mazkur usul indikator vaznini kontrast intensivligi (standart chetlanish) va indikatorlararo konflikt (1 minus korrelyatsiya) ko'paytmasi orqali aniqlaydi. Ikki usul natijalari chiziqli birlashtirish ($\alpha = 0,5$) orqali yakuniy vaznga keltirildi.

To'rtinchi, markaziy bosqichda konturlar o'rtasidagi agregatlash masalasi hal etildi. Arifmetik o'rtacha bir blokning past qiymatini boshqa blokning yuqori qiymati bilan qoplaydi va bu ketma-ket zanjir uchun iqtisodiy mazmuni to'liq aks ettirmaydi. Geometrik o'rtacha qoplash darajasini cheklaydi, biroq eng zaif bo'g'inining cheklovchi rolini to'liq ifodalaymaydi. Ketma-ket zanjir tizimlari uchun Y. Libigning eng kam qonuni amal qiladi: tizimning imkoniyati eng zaif elementi bilan belgilanadi. Shu sababli agregatlashda geometrik o'rtacha eng kichik blok qiymati bilan kengaytiriladi, kengaytirish darajasi esa ixtiyoriy tanlanmaydi, balki zanjir tuzilmasidan keltirib chiqariladi:

$$I_{TRM} = (\prod_{l=1}^4 K_l^{\omega_l})^{1-\lambda} \cdot (\min K_l)^{\lambda}, \quad \lambda = \frac{1}{L-1} \quad (4)$$


bunda K_l — l-blokning indeksi, ω_l — blok vazni, λ — cheklovchi omilga sezgirlik parametri, L — zanjir bo'g'inlari soni. Zanjirda L ta bo'g'in bo'lganda, ular o'rtasidagi ketma-ket bog'lanishlar soni $L-1$ ga teng bo'ladi va cheklovchi omilning ta'siri shu nisbatda kuchayadi. Shundan $\lambda = 1/(L-1)$ formulasi keltirib chiqariladi. λ nolga teng bo'lganda ifoda odatdagi geometrik o'rtachaga aylanadi, λ birga teng bo'lganda esa integral indeks faqat eng zaif blok bilan belgilanadi. To'qimachilik sanoati uchun $L = 4$ bo'lgani sababli $\lambda = 1/3$ ga teng bo'ladi.

2 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ishlab chiqilgan uslubiylatning ishlash qobiliyatini tekshirish uchun 2025-yilning birinchi yarim yilligi bo'yicha namunaviy hisob-kitob amalga oshirildi. Unda tayyor to'qimachilik mahsulotlari 48,0 foizni, ip-kalava 32,0 foizni, trikotaj mato 9,0 foizni, gazlamalar 5,0 foizni tashkil etgan. Boshqa mahsulotlar guruhi zanjir bo'g'iniga aniq bog'lanmagani sababli hisobdan chiqarilib, qolgan ulushlar qayta normallashtirildi: ikkinchi bo'g'in ulushi 0,340, uchinchi bo'g'in ulushi 0,149, to'rtinchi bo'g'in ulushi esa 0,511 ni tashkil etdi.

Formula (2) bo'yicha $L = 4$ da zanjir chuqurligi indeksi $D = (2/4) \cdot 0,340 + (3/4) \cdot 0,149 + (4/4) \cdot 0,511 = 0,793$ ga teng chiqdi. Quyi chegara ikkinchi bo'g'inga to'g'ri kelgani sababli formula (3) bo'yicha normallashtirilgan qiymat $d = (0,793 - 0,500) / (1 - 0,500) = 0,585$ ga teng bo'ldi. Ushbu natija amaldagi amaliyotda qo'llanadigan oddiy ko'rsatkich bilan taqqoslandi (2-rasm).



2-rasm. Oddiy ko'rsatkich va zanjir chuqurligi indeksining qiyosi, 2025-yil I yarim yillik³

Rasmdan ko'rinib turibdiki, xuddi shu davr uchun tayyor mahsulot ulushi sifatida hisoblangan oddiy koeffitsient 0,480 ni tashkil etadi, zanjir chuqurligi indeksi esa 0,585 ga teng bo'lib, farq 0,105 punktni tashkil qiladi. Mazkur farqning sababi shundaki, oddiy koeffitsient gazlama va trikotaj matoni ip-kalava bilan bir toifada ko'radi va ularni tayyor bo'lmagan mahsulot sifatida tenglashtiradi. Aslida esa mato zanjirning uchinchi bo'g'ini bo'lib, u ip-kalavadan bir bosqich yuqorida turadi. Shu jihatdan, zanjir chuqurligi indeksi tarmoqning qayta ishlash darajasini yanada aniqroq aks ettirish imkonini beradi.

Vaznlarni hisoblash uchun to'rt kuzatuv — 2024-yil yanvar–iyul, 2025-yil I yarim yillik, 2025-yil yakuni va Farg'ona viloyati bo'yicha 2025-yil yanvar–aprel davrlari — olindi. CRITIC va entropiya usullari bo'yicha hisob-kitob natijalari 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

CRITIC va entropiya usullarida vaznlarni hisoblash natijalari⁴

Ko'rsatkich	r1 (qayta ishlash chuqurligi)	Ip-kalava ulushi
O'rtacha qiymat (normallashtirilgan)	0,588	0,531
Standart chetlanish, σ	0,436	0,459
Korrelyatsiya koeffitsienti, r_{12}	0,969	0,969
CRITIC vazni, w_C	0,487	0,513
Entropiya vazni, w_E	0,453	0,547
Birlashtirilgan vazn, $w^* (\alpha = 0,5)$	0,470	0,530


Jadvaldan ko'rinib turibdiki, ikki indikator o'rtasidagi korrelyatsiya koeffitsienti 0,969 ga teng chiqdi, bu ularning juda yaqin axborot berayotganini ko'rsatadi. CRITIC usuli buni konflikt komponentining pasayishi orqali qayd etdi va ikkala indikatorning axborot miqdorini bir vaqtning o'zida kamaytirdi. Entropiya usuli esa mazkur o'zaro yaqinlikni to'liq aks ettirmaydi va vaznlarni asosan farqlanish darajasi bo'yicha taqsimlaydi. Ushbu farq CRITIC usulini tanlashning amaliy asosini tashkil etadi hamda ip-kalava ulushi alohida indikator sifatida saqlanishi zarurligini qayta ko'rib chiqish, uning o'rniga mustaqil axborot beruvchi ko'rsatkich kiritish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi.

3 Manba: muallif hisob-kitoblari.

4 Manba: muallif hisob-kitoblari.




Integral indeksning agregatsiya parametriga bog'liqligi 3-rasmda ko'rsatilgan. Natijaviylik bloki uchun zanjir chuqurligi indeksining qiymati 0,585, sezuvchanlik bloki uchun maqsadga erishish darajasi 0,625 deb qabul qilinganda, teng vaznlarda geometrik komponent 0,605 ga teng chiqadi.



3-rasm. Integral indeksning cheklovchi omilga sezgirlik parametriga bog'liqligi⁵

Rasmdan ko'rinib turibdiki, $\lambda = 0$ nuqtasida indeks sof geometrik o'rtachaga (0,605) teng, $\lambda = 1$ nuqtasida esa u sof minimumga (0,585) intiladi. Zanjir uzunligidan analitik keltirib chiqarilgan $\lambda = 1/3$ nuqtasida integral indeks 0,598 ga teng bo'ladi. Bu qiymat ikki chegara orasida joylashgan bo'lib, cheklovchi omil ta'sirining qisman hisobga olinishini ifodalaydi. Pasayish hajmi katta emas, chunki ikki blok qiymatlari bir-biriga yaqin. Bloklar orasidagi tafovut kattalashganda tuzatish sezilarli bo'ladi va bu formulaning asosiy iqtisodiy mazmunini tashkil etadi.

Ishlab chiqilgan o'lchov apparatining ierarxik tuzilmasi — tabaqalanganlik, natijaviylik, sezuvchanlik va moslashuvchanlik mezonlarining boshqaruv tizimi nazariyasidagi to'rt elementga, ya'ni kirish, chiqish, teskari aloqa va uzatish funksiyasiga mosligi — 4-rasmda umumlashtirilgan.



4-rasm. Mexanizmni baholash mezonlarining boshqaruv tizimi elementlariga mosligi⁶

Olingan natijalar Y. Libigning eng kam qonunini [10] agrokimyodan kompozit indekslar nazariyasiga formal tarzda ko'chirish imkonini beradi: klassik qonunda cheklovchi omil o'simlik o'sishini belgilasa, mazkur modelda u zanjirning eng zaif texnologik bo'g'ini orqali integral indeksni belgilaydi. Ushbu ko'chirishning ilmiy qiymati

5 Manba: muallif hisob-kitoblari

6 Manba: muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

parametrning o'zboshimchalik bilan emas, balki zanjir uzunligidan analitik tarzda keltirib chiqarilishida namoyon bo'ladi. Bu esa A. Charnes, U. Kuper va E. Rods rivojlantirgan [5] nisbiy samaradorlik tahlilidan farqli ravishda, agregatlash qoidasining o'zini tekshiriladigan va takrorlanadigan tarzda qurish imkonini beradi.

Zanjir chuqurligi indeksi va oddiy ko'rsatkich o'rtasidagi 0,105 punktlilik farq R. Koopman va hammualliflarining qiymat zanjiridagi mavqe nazariyasini [4] kengaytiradi: agar Koopman modeli tarmoqlararo balans jadvalini talab qilsa, tola ekvivalenti konsepsiyasi ayni nazariy g'oyani — oraliq bo'g'inlarning quyi bo'g'in bilan tenglashtirilmasligini — ancha soddahisoblash apparati orqali amalga oshiradi va shu orqali uni O'zbekiston statistikasi sharoitida qo'llash imkonini beradi.

CRITIC va entropiya usullari o'rtasidagi farq D. Diakulaki va hammualliflarining [8] asosiy tezisini amaliy jihatdan tasdiqlaydi: ikki indikator o'rtasidagi 0,969 darajasidagi korrelyatsiya entropiya usulida to'liq aks etmaydi. Bu esa faqat farqlanishga tayangan vaznlashda takrorlanuvchi axborotni ikki marta hisobga olish ehtimoli mavjudligini ko'rsatadi. Mazkur natija K. Shennon nazariyasining [6] o'ziga emas, balki uning kompozit indekslar tuzishda to'g'ridan-to'g'ri qo'llanilishida metodologik ehtiyotkorlik zarurligiga ishora qiladi.

Amaliy nuqtayi nazardan, natijalar ikkita muhim oqibatga ega. Birinchidan, sanoat siyosatini baholashda oddiy hajm yoki ulush ko'rsatkichlari o'rniga zanjir tuzilmasini hisobga oluvchi indekslardan foydalanish maqsadga muvofiq. Aks holda, mato ishlab chiqarishga yo'naltirilgan investitsiyaning natijasi to'liq aks etmasligi va uning samaradorligini baholash imkoniyati cheklanishi mumkin. Ikkinchidan, cheklovchi omilga sezgirlik parametrining zanjir uzunligidan keltirib chiqarilishi metodikaning boshqa ketma-ket texnologik zanjirga ega tarmoqlarga, masalan, teri-charm va oziq-ovqatni qayta ishlash sohalariga ko'chirilishini prinsipial jihatdan mumkin qiladi. Biroq bunday ko'chirish har bir holatda zanjir bo'g'inlari va chiqim koeffitsientlarini qayta aniqlashni talab qiladi.

Tadqiqotning ayrim metodologik jihatlari shundan iboratki, taklif etilgan uslubiyatning bir qismi — tabaqalanganlik va sezuvchanlik bloklaridagi ayrim indikatorlar — proksi ko'rsatkichlarga tayanadi, chunki asosiy ko'rsatkich bo'yicha rasmiy statistika hali to'liq shakllanmagan. Proksi tanlovi ikki shartga — mazmunan bir xil hodisani ifodalash va mustaqil tekshiriladigan manbadan olinish — javob berishi ta'minlangan bo'lsa-da, asosiy ko'rsatkich statistikasi shakllantirilgach, proksilarni almashtirish keyingi tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qoladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tadqiqot ketma-ket texnologik zanjirga xos o'lchov muammosini nazariy jihatdan hal etish imkonini berdi. Mavjud baholash vositalari asosan tarmoq holatini o'lchashga yo'naltirilgani ko'rsatilib, mezonlar tarmoq holatidan emas, balki mexanizmning to'rt shartidan — tabaqalanganlik, natijaviylik, sezuvchanlik va moslashuvchanlikdan — deduktiv tarzda keltirib chiqarildi.

Boshlang'ich xomashyoga nisbatan hisoblangan tola ekvivalenti konsepsiyasi asosida zanjir chuqurligi indeksi qurildi. Uning namunaviy hisob-kitobi amaldagi tayyor mahsulot ulushidan 0,105 punktga yuqori natija berdi, bu esa zanjir chuqurligi indeksining tarmoqning qayta ishlash darajasini yanada to'liqroq aks ettirishini ko'rsatdi. CRITIC va entropiya usullarining birlashtirilgan qo'llanilishi obyektiv vaznlashni ta'minladi, ketma-ket zanjir uchun Y. Libigning eng kam qonuniga asoslangan agregatlash formulasi esa cheklovchi omilga sezgirlik parametrini $\lambda = 1/(L - 1)$ tarzida zanjir uzunligidan analitik keltirib chiqarish imkonini berdi.

Amaliy nuqtayi nazardan, natijalar sanoat siyosatini baholashda tarmoq holati bilan boshqaruv mexanizmi sifatini farqlash zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi va mazkur farqni miqdoriy o'lchash uchun tekshiriladigan apparatni taqdim etadi. Keyingi tadqiqotlarda apparatning hududlar va yillar kesimidagi to'liq tatbiqi hamda proksi ko'rsatkichlarning asosiy statistika bilan almashtirilishi dolzarb yo'nalish hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. UNIDO. *Competitive Industrial Performance Report 2020*. — Vienna: United Nations Industrial Development Organization, 2020. — P. 12–24.
2. Balassa B. Trade Liberalisation and "Revealed" Comparative Advantage // *The Manchester School*. — 1965. — Vol. 33, No. 2. — P. 99–123.
3. Hirschman A. O. The Paternity of an Index // *The American Economic Review*. — 1964. — Vol. 54, No. 5. — P. 761–762.
4. Koopman R., Wang Z., Wei S.-J. Tracing Value-Added and Double Counting in Gross Exports // *American Economic Review*. — 2014. — Vol. 104, No. 2. — P. 459–494.
5. Charnes A., Cooper W. W., Rhodes E. Measuring the Efficiency of Decision Making Units // *European Journal of Operational Research*. — 1978. — Vol. 2, No. 6. — P. 429–444.
6. Shannon C. E. A Mathematical Theory of Communication // *The Bell System Technical Journal*. — 1948. — Vol. 27, No. 3. — P. 379–423.
7. Zeleny M. *Multiple Criteria Decision Making*. — New York: McGraw-Hill, 1982. — P. 325–334.



8. Diakoulaki D., Mavrotas G., Papayannakis L. Determining Objective Weights in Multiple Criteria Problems: The CRITIC Method // *Computers & Operations Research*. — 1995. — Vol. 22, No. 7. — P. 763–770.
9. Hwang C. L., Yoon K. *Multiple Attribute Decision Making: Methods and Applications*. — Berlin; Heidelberg: Springer-Verlag, 1981. — P. 128–140.
10. Liebig J. *Die organische Chemie in ihrer Anwendung auf Agricultur und Physiologie*. — Braunschweig: Vieweg, 1840. — S. 105–110.
11. OECD, European Commission, JRC. *Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide*. — Paris: OECD Publishing, 2008. — P. 27–34, 83–98.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 16-yanvardagi. "To'qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatida qayta ishlash zanjirini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PF-6-son Farmoni: <https://lex.uz/uz/docs/-7330228>
13. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari [Elektron resurs]. — URL: <https://stat.uz>.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100